



UDK 330.322+ 334.7 (575.1)

INVESTITSION FAOLIYAT YURITUVCHI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH VA ULARNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17907373>
A.H.Ergashev

PhD, dotsent, Farg'ona davlat universiteti

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida investitsiya faoliyatining tutgan o'rni hamda korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tahlil etiladi. Tadqiqotda investitsion korxonalar salohiyatini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy, huquqiy, moliyaviy va infratuzilmaviy omillar yoritiladi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar va zamonaviy boshqaruv mexanizmlarining investitsiya jarayonlariga ta'siri, davlatning investitsiya muhiti hamda qo'llab-quvvatlash siyosatining ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Ishda investitsiya muhitini takomillashtirish, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, korxonalar boshqaruvini optimallashtirish hamda ularga zarur moliyaviy manbalarni yetkazib berishning dolzarbligi alohida ta'kidlanadi. Shuningdek, istiqbolli yo'nalishlar - yuqori texnologiyalar, qishloq xo'jaligi, ekologik barqarorlik va raqamli iqtisodiyotga investitsiyalar jalb qilishning ustunliklari tahlil qilinadi. Tadqiqotda investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish, korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ularning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan kompleks strategik yo'nalishlar hamda takliflar ilgari suriladi. Mazkur maqola investitsiya jarayonlarini rivojlantirish va ularning natijadorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

ANNOTATION. This article analyzes the role of investment activity in the economic development of the country and examines comprehensive measures aimed at enhancing the economic efficiency of enterprises. The study highlights the economic, legal, financial, and infrastructural factors necessary for strengthening the potential of investment enterprises. It also considers the impact of innovative technologies and modern management mechanisms on investment processes, as well as the importance of the investment environment and state support policies.

The paper emphasizes the relevance of improving the investment climate, strengthening cooperation between the public and private sectors, optimizing enterprise management, and providing them with essential financial resources. In addition, it analyzes the advantages of attracting investments to promising sectors such as high technologies, agriculture, environmental sustainability, and the digital economy. The study



proposes comprehensive strategic directions and recommendations aimed at increasing the economic efficiency of investments, supporting enterprise activities, and enhancing their economic potential. This article offers practical suggestions for improving investment processes and increasing their effectiveness.

АННОТАЦИЯ. *В данной статье анализируется роль инвестиционной деятельности в экономическом развитии страны, а также рассматриваются комплексные меры, направленные на повышение экономической эффективности предприятий. В исследовании освещаются экономические, правовые, финансовые и инфраструктурные факторы, необходимые для развития потенциала инвестиционных предприятий. Кроме того, рассматривается влияние инновационных технологий и современных механизмов управления на инвестиционные процессы, а также значение инвестиционного климата и государственной политики поддержки.*

В работе особо подчеркивается актуальность совершенствования инвестиционного климата, укрепления сотрудничества между государственным и частным секторами, оптимизации управления предприятиями и обеспечения их необходимыми финансовыми ресурсами. Также анализируются преимущества привлечения инвестиций в перспективные направления - высокие технологии, сельское хозяйство, экологическую устойчивость и цифровую экономику. В исследовании предлагаются комплексные стратегические направления и рекомендации, направленные на повышение экономической эффективности инвестиций, поддержку деятельности предприятий и укрепление их экономического потенциала. Данная статья содержит практические предложения по развитию инвестиционных процессов и повышению их результативности.

KALIT SO‘ZLAR: *investitsiyalar, innovatsion yondashuvlar, investitsion faoliyat, sanoat korxonalari, iqtisodiy salohiyat, real sektor*

KEYWORDS: *investments, innovative approaches, investment activity, industrial enterprises, economic potential, real sector*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *инвестиции, инновационные подходы, инвестиционная деятельность, промышленные предприятия, экономический потенциал, реальный сектор*

KIRISH

Investitsion korxonalar iqtisodiyotning poydevorini tashkil etuvchi strategik ahamiyatga ega bo‘lgan tarkibiy tuzilmalardan biri bo‘lib, ularning samarali faoliyat yuritishi mamlakatning makroiqtisodiy

barqarorligi, raqobatbardoshligi va uzoq muddatli rivojlanish jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Investitsiya jarayonlarining faol va barqaror kechishi iqtisodiy o‘shish sur’atlarini oshirish, ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirish, resurslardan samarali foydalanish hamda



yangi texnologiyalarni joriy etish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratadi. Shu boisdan ham mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash, investitsion korxonalar faoliyatini institutsional, moliyaviy va tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

Investitsion korxonalar har qanday milliy iqtisodiyotning asosiy bo'g'inini tashkil qiladi. Ular nafaqat ishlab chiqarish tarmoqlarining modernizatsiyasi va diversifikatsiyasiga xizmat qiladi, balki yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsion yechimlarni joriy etish, qayta ishlash darajasini oshirish va global talabga mos mahsulotlar eksportini kengaytirishda ham muhim rol o'ynaydi. Mazkur korxonalar faoliyati bozor infratuzilmasi rivoji, moliya bozori barqarorligi va iqtisodiy faollikning oshishiga bevosita hissa qo'shadi. Shu nuqtayi nazardan, investitsion korxonalarning iqtisodiy salohiyatini oshirish ularning texnologik darajasini yuksaltirish, boshqaruv tizimini takomillashtirish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish va innovatsion imkoniyatlardan samarali foydalanishni talab etadi.

Bugungi globallashuv sharoitida investitsiyalarni jalb qilish jarayoni tobora raqobatli tus olmoqda. Jahon bozoridagi beqarorlik, geosiyosiy xavflar, energiya va xomashyo narxlaridagi o'zgaruvchanlik investitsion oqimlarning barqarorligiga ta'sir etuvchilar qatoriga kiradi. Shu sababli, davlatlar investitsion jozibadorlikni oshirish, investorlar uchun

kafolat va rag'batlar yaratish, xavf-xatarlarni kamaytirish va biznes yuritish qulayligini oshirish bo'yicha kompleks siyosat olib bormoqdalar. Xususan, investitsion faoliyatni samarali boshqarish, xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish hamda yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish kabi omillar mamlakatning xalqaro iqtisodiy maydondagi raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi.

Shu ma'noda, investitsion korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ularning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash nafaqat iqtisodiy o'sishning muhim omili, balki iqtisodiyotning barqaror, innovatsion va raqobatbardosh rivojlanishi uchun zarur bo'lgan strategik vazifadir. Bu borada davlatning oqilona tartibga solish siyosati, investitsiyalar uchun qulay sharoitlar yaratish, soliq va bojxona imtiyozlari, kredit liniyalari, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng qo'llash, shuningdek, raqamli boshqaruv texnologiyalarining joriy etilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Investitsion korxonalarning iqtisodiy salohiyatini oshirish va faoliyatini qo'llab-quvvatlashning istiqbolli yo'llari mamlakatlar o'rtasida nafaqat iqtisodiy barqarorlikni, balki ijtimoiy va ekologik barqaror rivojlanishni ta'minlashga ham xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, davlatning investitsiya siyosati, moliyaviy tizimni yaxshilash, huquqiy infratuzilmani



takomillashtirish va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish kabi omillarni hisobga olish zarur.

METODOLOGIYA

Jahon iqtisodiyotida turli mintaqalar o'rtasidagi investitsiyalarga bo'lgan talab va taklifning nomutanosibligi tobora kuchayib bormoqda. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlar kapitalini rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiyotiga yo'naltirish tendensiyalari sezilarli darajada o'smoqda. Natijada, rivojlanayotgan mamlakatlarda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning ulushi ortib, ushbu mamlakatlar iqtisodiy o'sishi va ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirishda muhim rol o'ynamoqda. Shu bilan birga, investitsiyalarni samarali jalb qilish va ularning natijadorligini oshirishga doir masalalar ham yanada dolzarb bo'lmoqda.

Investitsiyalar samaradorligini oshirish jarayonida ko'plab murakkab masalalar mavjud bo'lib, ular investitsion faoliyatni moliyaviy boshqarishning takomillashtirilishini talab qiladi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, kompaniyalar investitsion qarorlar qabul qilishda nafaqat loyiha rentabelligini baholash, balki baholash mexanizmlarini to'g'ri tanlash, investitsion loyihalarni kompleks tarzda boshqarish va risklarni minimallashtirishga katta e'tibor qaratadi. Shu bilan birga, kapital tuzilmasini optimal shakllantirish, kapital qiymatini kamaytirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash kabi masalalar ham strategik ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda investitsion faoliyat samaradorligini ilmiy asosda baholashning yetarli darajada chuqur o'rganilmaganligi, ushbu sohada amaliy va nazariy tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda. Mazkur yo'nalishda investitsion samaradorlikni baholash tizimi, strategik boshqaruv jarayonini tashkil etish, investitsion risklarni aniqlash va ularni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biridir. Shu tarzda, investitsion faoliyatni ilmiy asosda tahlil qilish, korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirish va global bozor talablariga moslashuvchanligini ta'minlash mamlakat iqtisodiyotining barqaror va raqobatbardosh rivojlanishi uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida «...iqtisodiy o'sishga, avvalo, raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko'paytirish orqali erishiladi» ... «Shu bilan birga, investitsiya siyosatini yuritishda davlat ishtirokini pasaytirib, xususiy va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ulushini oshirish kerak», - deb ta'kidlanishi masalaga yanada oydinlik kiritadi. [2] Chunki iqtisodiy o'sishga investitsiyalar orqali erishish hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushini oshirishda mamlakat va uning hududlarida investitsion muhit jozibadorligini yanada yaxshilash hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu esa, o'z navbatida, xorijiy investitsiyalarni jalb etishda hududiy



investitsiya siyosati va uni takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilishi zarurligini ko'rsatadi.

Investitsion korxonalarning iqtisodiy salohiyatini oshirish va ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlashning istiqbolli yo'llarini tahlil qilishda turli metodologik yondashuvlardan foydalanilgan. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Tahliliy-metodologik yondashuv.

Investitsion korxonalarning iqtisodiy salohiyatini oshirish va ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlashning turli jihatlarini tizimli tahlil asosida o'rganiladi. Bu yondashuv orqali investitsiya faoliyatining ta'sirini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish kontekstida tahlil qilish, asosiy muammolarni aniqlash va ularni hal qilish bo'yicha istiqbolli yo'llarni ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi. Tahliliy metod orqali investitsion korxonalarning iqtisodiy samaradorligi, investitsiya muhitining rivojlanishi va shu bilan bog'liq omillarni chuqur o'rganish rejalashtirilgan.

2. *Komparativ tahlil.* Investitsion korxonalarning iqtisodiy salohiyatini oshirish bo'yicha mavjud tajribalarni solishtirish metodidan ham foydalaniladi. Bu metod orqali turli mamlakatlarning investitsiya strategiyalari, ularning samaradorligi va o'zgarishlarni qabul qilishning darajasi tahlil qilinadi. Solishtirish orqali, o'zaro taqqoslanadigan omillar va usullar asosida, mamlakatlarga mos investitsion siyosat va amaliyotlar ishlab chiqiladi.

3. *Statistik tahlil.* Investitsion faoliyatning samaradorligini o'lchashda statistik metodlardan foydalaniladi. Investitsion korxonalarning daromadlari, ishlab chiqarish hajmi, eksport hajmi kabi iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida tahlil olib boriladi. Statistik tahlil yordamida investitsiyalarning iqtisodiy salohiyatga ta'siri va ularning o'sish sur'atlari aniqlanadi. Shu bilan birga, investitsion korxonalarning iqtisodiy salohiyatini oshirishga olib keluvchi omillarni aniqlash uchun ma'lumotlar to'plami yig'iladi.

4. *Ekspert baholash metodlari.* Maqolada ekspertlar va soha mutaxassislarining fikrlari ham e'tiborga olinadi. Ekspert baholash metodlari orqali investitsion korxonalarning rivojlanishidagi asosiy muammolar va istiqbolli yo'llar aniqlanadi. Bu metod korxonalar va davlat organlari o'rtasida samarali hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi.

5. *Prognozlash metodlari.* Investitsiya faoliyatining kelgusi rivojlanishini prognozlash uchun matematik modellash va analitik metodlardan foydalaniladi. Ushbu metodlar investitsion korxonalarning salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilinadigan chora-tadbirlarning ijobiy va salbiy ta'sirlarini oldindan prognozlashga yordam beradi. Prognozlar orqali, investitsiya muhitining o'zgarishlariga qanday moslashish kerakligini aniqlash mumkin.



ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsion korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirish va ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash masalalari so'nggi yillarda nafaqat iqtisodiy tadqiqotlarda, balki amaliy boshqaruv amaliyotida ham keng o'rganilmoqda. Bu yo'nalish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar va adabiyotlar investitsion faoliyatning samaradorligini oshirish uchun turli nazariy va amaliy yondashuvlarni taqdim etadi. Shu adabiyotlar sharhi orqali, investitsion korxonalarining samarali ishlashini ta'minlashda asosiy omillar, imkoniyatlar va istiqbolli yo'nalishlar tizimli tarzda tahlil qilinadi.

Investitsion korxonalarining faoliyatini samarali tashkil etishda eng muhim omillardan biri sifatida investitsiya muhitining barqarorligi ajralib turadi. Bu nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy, huquqiy va moliyaviy sharoitlarni o'z ichiga oladi. Barqaror investitsiya muhiti korxonalarni uzoq muddatli rejalashtirish, kapitalni samarali taqsimlash va innovatsion loyihalarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, davlat tomonidan taqdim etiladigan imtiyozlar, subsidiyalar, soliqqa oid rag'batlantiruvchi mexanizmlar va xususiy sektor bilan hamkorlik tizimi investitsion korxonalarining salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, investitsion korxonalarni qo'llab-quvvatlashda zamonaviy boshqaruv uslublari va innovatsion texnologiyalarni joriy etish

alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, raqamli texnologiyalar yordamida moliyaviy monitoring, risklarni boshqarish, resurslarni optimallashtirish va investitsion loyihalarni boshqarish jarayonlari sezilarli darajada takomillashtiriladi. Shu tarzda, investitsion korxonalarni qo'llab-quvvatlashning istiqbolli yo'llari nafaqat ularning iqtisodiy samaradorligini oshirishga, balki milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi, ish o'rinlarini yaratish va innovatsion rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Aghion P. va Howitt P. (2009) o'zlarining ilmiy ishlarida innovatsiyalarni rivojlantirish orqali investitsiyalarni jalb qilishning ahamiyatini ta'kidlaydilar [4]. Ularning fikricha, innovatsiyalar va texnologik yangiliklar orqali investitsiyalarni oshirish korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirishning asosiy mexanizmidir. Shuningdek, Samuelson P.A. va Nordhaus W.D. (2010) investitsiya siyosatining barqarorligini ta'minlash, shuningdek, yuridik va moliyaviy tizimlarni mustahkamlash orqali investitsiyalarni samarali yo'naltirish zarurligini ko'rsatadilar. [15]

O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida investitsiya muhiti va investitsiya siyosati alohida o'rin tutadi. Raxmonov B.A. (2017) o'zining "Investitsiya va innovatsiyalar" asarida investitsiya muhiti va uning iqtisodiyotga ta'siri haqida batafsil ma'lumot beradi. Raxmonov investitsion muhitning rivojlanishini davlat siyosatiga alohida



e'tibor qaratish orqali kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi. [12] Uning fikricha, yuridik, moliyaviy va boshqaruv tizimlarining barqarorligi investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini oshiradi.

Rosenbaum M. va Pearl J. (2009) investitsion korxonalarga mablag' jalb qilishda moliyaviy va huquqiy tizimning ahamiyatini ko'rsatadilar. Ularning fikricha, samarali investitsiya strategiyalari uchun soliq imtiyozlari va boshqa moliyaviy rag'batlantirishlar muhim omil bo'lib xizmat qiladi. [13] Brealey R.A., Myers S.C., va Allen F. (2011) investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayonini moliyaviy va huquqiy tizimlar bilan moslashtirishni tavsiya qiladilar. [5] Bu esa, o'z navbatida, investitsiyalarni yanada samarali va xavfsiz yo'naltirishga imkon beradi.

Abdurahmonov S.A. (2013) o'zining "Investitsiyalarni boshqarish" asarida investitsiyalarning samarali boshqaruvi uchun zarur bo'lgan huquqiy va moliyaviy asoslarni tahlil qiladi. [3] U investitsiyalarni samarali yo'naltirish va boshqarish uchun shaffof yuridik muhit va soliq imtiyozlarini taqdim etishni taklif qiladi. Muallif investitsion korxonalarining faoliyatini qo'llab-quvvatlashda moliyaviy tizimni takomillashtirish va yangi iqtisodiy mexanizmlar yaratish zarurligini ta'kidlaydi.

Schumpeter J.A. (1942) o'zining mashhur "Ijodiy Buhron" asarida iqtisodiy salohiyatni oshirishda innovatsiyalar va texnologik

rivojlanishning o'rnini ta'kidlaydi. [20] Innovatsion jarayonlar orqali yangi texnologiyalarni joriy etish nafaqat ishlab chiqarishni optimallashtirish, balki iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Porter M.E. (1990) investitsiya strategiyalarini shakllantirishda raqobatbardoshlikni kuchaytirishga yo'naltirilgan innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash zarurligini aytadi. [11] U yuqori texnologiyalar va ilmiy ishlanmalarga sarmoya kiritishni, o'z navbatida, mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshirish uchun zarur deb hisoblaydi.

Toshpulatov N.S. (2015) "Innovatsion iqtisodiyot va investitsiyalar" asarida texnologik rivojlanish va innovatsiyalar orqali investitsiyalarni oshirishning ahamiyatini ko'rsatadi. [17] U innovatsion jarayonlarni rivojlantirish orqali investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash imkoniyatlarini o'rganadi. Uning fikricha, texnologik yangiliklar va innovatsion tashabbuslar orqali korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirishga erishish mumkin.

Yashil iqtisodiyot va ekologik barqarorlik masalalari so'nggi yillarda investitsion strategiyalarni shakllantirishda muhim o'rin egalladi. Stern N. (2007) ekologik o'zgarishlarni kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun investitsiyalarni yashil texnologiyalar va energiya samaradorligini oshirishga yo'naltirish zarurligini ta'kidlaydi. [16] Unga ko'ra, ekologik toza texnologiyalarni



rivojlantirish, o'z navbatida, investitsion korxonalarning iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Yashil iqtisodiyot va ekologik barqarorlik masalalari ham bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotida muhim o'rin egallaydi. Mirkhonov A.A. (2019) "Ekologik investitsiyalar va barqaror rivojlanish" asarida ekologik toza texnologiyalarga investitsiyalarni jalb qilish zarurligini ta'kidlaydi. [9] Mirkhonov ekologik barqaror rivojlanish uchun yashil texnologiyalarga bo'lgan talabni oshirish va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan investitsiyalarga alohida e'tibor berish zarurligini ta'kidlashadi.

Zengler T. (2004) investitsion tarmoqlarni diversifikatsiya qilish, ya'ni yangi va istiqbolli tarmoqlarga investitsiyalarni yo'naltirishning ahamiyatini ta'kidlaydi. [6] Bu yondashuv mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlaydi va iqtisodiy risklarni kamaytiradi. Shuningdek, Krugman P. (1991) global iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni oshirish uchun yuqori texnologiyali tarmoqlarga sarmoya kiritish zarurligini aytadi. [7] Bu fikrlarni D.C. (1990) o'zining institutsional nazariyasida qo'llab-quvvatlaydi, chunki u davlatning investitsiya infratuzilmasini kuchaytirish va innovatsion tizimlarni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. [10].

Xolmatov M.Sh. (2018) "Investitsiyalar va iqtisodiy diversifikatsiya" asarida investitsion tarmoqlarni diversifikatsiya qilish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash zarurligini

ko'rsatadi. [18] Xolmatov, ayniqsa, O'zbekistonning qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarida investitsion tarmoqlarni kengaytirish va yangilarini rivojlantirishni o'rganadi. Uning fikriga ko'ra, tarmoqlarni diversifikatsiya qilish mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlaydi va yangi ish o'rinlarini yaratadi.

Investitsion korxonalarning iqtisodiy salohiyatini oshirish va ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlashning istiqbolli yo'llari turli jihatlarni, jumladan, innovatsiyalarni rivojlantirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash, moliyaviy va huquqiy tizimni mustahkamlash, va investitsion tarmoqlarni diversifikatsiya qilishni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, investitsion siyosatning barqarorligi va yuridik infratuzilmaning mustahkamligi ham muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagi adabiyotlarda ko'rsatilganidek, investitsion korxonalarning iqtisodiy salohiyatini oshirish va ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlashning istiqbolli yo'llari O'zbekistonda moliyaviy va huquqiy tizimlarni takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va investitsion tarmoqlarni diversifikatsiya qilishni o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuvlar mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va barqaror o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi. Adabiyotlar orqali investitsion korxonalarning samarali faoliyatini ta'minlash uchun kompleks yondashuv zarurligi ko'rsatilgan.



NATIJALAR

Investitsion korxonalarning iqtisodiy salohiyatini oshirish uchun birinchi navbatda moliyaviy tizimni mustahkamlash lozim. Xususi va davlat sektorlari o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmlarini joriy etish, investitsiyalarga qulay soliq imtiyozlari va kredit shart-sharoitlarini yaratish, shuningdek xususi sektorga moliyaviy resurslarni yetkazib berish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, investitsiyalarni jalb qilish jarayonini samarali tashkil etish uchun huquqiy tizimni takomillashtirish, qonunlarning shaffofligini oshirish hamda ularni zamon talablariga moslashtirish talab etiladi.

Investitsion korxonalarning samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish katta ahamiyatga ega. [19] Raqqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va avtomatlashtirish tizimlari ishlab chiqarishni yanada samarali qilish imkoniyatini yaratadi. Innovatsiyalarni rivojlantirish uchun ilmiy tadqiqotlar va texnologik startaplar uchun qo'llab-quvvatlash dasturlarini yaratish muhimdir. Bu orqali korxonalar nafaqat milliy, balki xalqaro bozorga ham muvaffaqiyatli kirish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Bugungi kunda ekologik barqarorlik va yashil iqtisodiyotga o'tish investitsion strategiyalarda muhim ahamiyatga ega. Investitsiyalarni ekologik toza texnologiyalar, energiya samaradorligi va tabiiy resurslarni muvozanatli boshqarishga yo'naltirish nafaqat

iqtisodiy o'sishni, balki jamiyatning ijtimoiy mas'uliyatini oshiradi. Investitsion korxonalarning salohiyatini oshirish uchun yuqori texnologiyalar, qishloq xo'jaligi, ekologik barqarorlik va raqqamli iqtisodiyotga yo'naltirilgan investitsiyalar zarur bo'lib, bu yangi ish o'rinlarini yaratish va mamlakatning global raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu jarayonda davlatning investitsiya infratuzilmasini rivojlantirish va innovatsion tizimlarni yaratishi muhimdir.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning turli shakllari mavjud. Ular orasida eng keng tarqalganlari: xorijiy sarmoya ishtirokida korxonalar tashkil etish, boshqa davlatga tegishli investitsiya asosida biznes ochish, erkin va maxsus iqtisodiy zonalarini rivojlantirish, xalqaro konsortsium, kontsessiya va alyanslar tuzish, xalqaro lizing va franchayzingni rivojlantirish, yer va tabiiy resurslardan foydalanish huquqini olish, mulkiy va nomulkiy huquqlarni qo'lga kiritish, shuningdek, davlat-xususi sheriklik va maxsus investitsiya dasturlarini joriy etish.


Bevosita xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ilg'or ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiya va uskuna bilan jihozlash, malakali ishchi kuchi va nou-xau transferini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, mahalliy bozorni sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish, eksport salohiyatini oshirish hamda milliy iqtisodiyotning global integratsiyasini kuchaytiradi. Shu bois, O'zbekistonda



xorijiy investitsiyalarni jalb etish va investorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida islohotlar amalga oshirilmoqda. Istiqloq yillarida uzoq muddatli kapital qo'yilmalar uchun qulay shart-sharoitlar yaratilib, zamonaviy texnologiyalar asosida korxonalar tashkil etildi va investitsiya hamda tadbirkorlik faoliyatining huquqiy bazasi takomillashdi. 2018 yil 1 sentyabrdan xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar ustav fondidagi minimal xorijiy ulush 30 foizdan 15 foizga, ustav

fondning minimal hajmi esa 600 mln. so'mdan 400 mln. so'mgacha kamaytirildi. [1]

Bunday holat mamlakatda qo'shma korxonalar sonining ko'payishiga imkon yaratdi. Biroq, ushbu davrgacha xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar ustav fondidagi xorijiy investitsiyalar ulushining eng kam miqdori 30 foiz qilib belgilanganligi xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ko'lamiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.



Rasm. Investor mamlakatlar bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, jamiga nisbatan foizda [8]

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalarning asosiy qismi ya'ni 61,9 foiz i to'rtta investor mamlakat hissasiga to'g'ri keladi: Rossiya - 24,2 foiz, Xitoy - 20,4 foiz, Germaniya - 8,1 foiz va Turkiya - 9,2 foizni tashkil etgan. Investitsion siyosat birinchi navbatda investitsion muhitning sub'yektiv tashkil etuvchilariga ta'sir etadi. Investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan investitsion siyosat yo'nalishlari ichida quyidagilarni alohida ko'rsatish lozim:

- mamlakat va chet el investorlari uchun qulay mexanizm yaratish;

- kapital mablag'lar samaradorligini oshirish;

- investitsion faoliyat bilan shug'ullanishdagi risk darajasini minimallashtirish.

Investitsion siyosat oxir-oqibatda mamlakatni barqaror ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi hamda aholi turmush darjasini oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Darhaqiqat, xorijiy investorning keyingi qiziqishlari qo'yilgan kapitalning qoplanish muddati, investitsiyalarning kapitallashuv jarayonlari, tomonlar ulushlari va



foydaning bo‘linishi, shuningdek, mamlakatdagi bozor iqtisodiyoti munosabatlarining kechishi va bunga xalqaro tashkilotlarning munosabatlari masalalariga e’tibor qaratiladi.

Investitsion korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirish va ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning istiqbolli yo‘llari mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirishga yordam beradi. Moliyaviy va huquqiy tizimni takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ekologik barqarorlikka e’tibor qaratish va yangi tarmoqlarga investitsiyalarni jalb qilish orqali investitsion korxonalarining samaradorligini oshirish mumkin. Shu tarzda amalga oshirilgan chora-tadbirlar, mamlakatning iqtisodiy mustahkamligini ta’minlab, xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini oshiradi.

MUHOKAMA

Davlat investitsiya siyosati quyidagi tarkibiy tuzilishga ega bo‘lib, o‘z ichiga quyidagi strategik tadbirlarni qamrab oladi:

- davlatning muhim iqtisodiy ko‘rsatkichlarini prognozlashtirish;
- iqtisodiyot tarmoqlarida moliyaviy siyosatni belgilash;
- davlat va investor o‘rtasidagi munosabatlarni me’yoriy tartibga solish;
- investitsion tovarlarni xarib qilish bo‘icha davlat byurtmalarini shakllantirish.

Davlat investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmlari uyidagilarni o‘zida aks ettiradi [14]:

1. Muayyan maqsadga erishishga qaratilgan yo‘l xaritasi (investitsiya faoliyatida yechimini kutayotgan boshqaruv vazifalari). Investitsiya siyosatini amalga oshirish muddatlarini, mas’ullarini, moliyalashtirish manbalari va usullarini o‘zida aks ettiruvchi kontsepsiyalar ishlab chiqish.

2. Investitsiya siyosatini amalga oshiruvchi muayyan hokimiyat organlarini belgilab olish. Shuningdek, investitsiya siyosatini amalga oshiruvchi mas’ul organlarning o‘zaro munosabat tartiblari va vakolatlarini belgilash.

3. Investitsiya siyosati vazifalarini amalga oshirish uchun muljallangan davlat resurslari hajmini belgilash. Investitsiyalarni jalb qilish uchun qo‘lay investitsion mo‘hiyatini shakllantirish (investitsion bozorni ta’minlash uchun infrastrukturani yaratish).

4. Investitsiya siyosatini amalga oshirish yuzasidan nazoratlar o‘tkazish.

5. Davlat va mahalliy byudjetdan foydalanish qoidalarini o‘zida aks ettiruvchi zarur bo‘lgan normativ-huquqiy bazani yaratish.

Umuman olganda, O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub’yektlari standart soliq rejimi yoki maxsus soliq rejimi bo‘yicha soliq to‘laydilar.

Standart soliq rejimi soliq turlarini to‘lashni nazarda tutadi, jumladan:

1. Korporativ daromad solig‘i (KDS), shu jumladan ushlab qolinadigan soliq;



2. Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), shu jumladan import qilingan tovarlarga xizmatlar uchun QQS;

3. Shaxsiy daromad solig'i (ShDS);

4. Ijtimoiy soliq (IS);

5. Mol-mulk solig'i;

6. Yer solig'i;

7. Suvdan foydalanish solig'i;

8. Aksiz solig'i;

9. Yer osti boyliklaridan foydalanishga solinadigan soliq.

Tegishli qonun hujjatlarida ayrim majburiyatlar va to'lovlar ham belgilanishi mumkin. Soliq kodeksining 21-bo'limiga binoan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilgan holda tashkil etilgan va tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yuridik shaxslarga yer solig'i, mulk solig'i va suvdan foydalanish solig'idan ozod qilish shaklidagi soliq imtiyozlari beriladi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etuvchi sub'yektlarga ma'lum muddatga soliq imtiyozlari beriladi, ular investitsiyalar miqdoriga qarab o'zgaradi: 300 000 AQSh dollaridan 3 mln AQSh dollarigacha - 3 yil muddatga; 3 million dollardan ortiq 10 million dollargacha - 5 yil muddatga; 10 million AQSh dollaridan ortiq - 7 yil muddatga.

Yuqoridagi soliq imtiyozlari quyidagi shartlar cheklanmagan holda beriladi: korxonalar tasdiqlangan ro'yxat bo'yicha

(<https://www.lex.uz/acts/561818>)

mahsulot ishlab chiqarishga yoki ayrim sohalarda xizmatlarga ishlarni bajarishga ixtisoslashgan bo'lishi kerak; korxonalar Toshkent viloyati va Toshkent shahridan

tashqari, O'zbekistonning istalgan shahar yoki qishloq aholi punktlarida joylashgan (sayohat va chiqindilarni qayta ishlash xizmatlarini ko'rsatuvchi kompaniyalar bundan mustasno); O'zbekiston Respublikasi bunday xorijiy investitsiyalar uchun suveren kafolatlar bermaydi; yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) xorijiy ishtirokchilarning ulushi kamida 33 foizni, aktsiyadorlik jamiyatlari uchun esa 15 foizdan kam emas; investitsiyalar qattiq valyutada yoki yangi zamonaviy texnologik uskunalarda amalga oshirilishi kerak va tegishli soliq tejashining kamida 50% korxonalarni yanada rivojlantirish uchun qayta investitsiya qilinishi kerak.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxona soliq qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa soliq imtiyozlaridan foydalanish huquqiga ega. Yangi Soliq kodeksida soliq imtiyozlari odatda faqat Soliq kodeksi bilan ta'minlanishi ko'zda tutilgan. Biroq, QQS, aksiz va yer osti boyliklaridan tashqari ayrim soliqlar bo'yicha imtiyozlar O'zbekiston Prezidenti tomonidan faqat belgilangan soliq stavkasini pasaytirish shaklida berilishi mumkin, lekin 50% dan oshmasligi kerak. Yangi Soliq kodeksi, shuningdek, soliq imtiyozlarini individuallashtirish mumkin emasligini aniq ko'rsatib turibdi (ilgari yirik investitsiya loyihalariga individual soliq imtiyozlari berilardi). Soliq kodeksining 75-moddasida belgilanganidek, ayrim soliqlar bo'yicha soliq imtiyozlari, QQS bundan mustasno, ishlab chiqarilgan va



sotilgan tovarlar uchun aktsiz solig'i, yer osti boyliklaridan foydalanish solig'i O'zbekiston Prezidentining qarorlari bilan faqat stavkalarni pasaytirish shaklida berilishi mumkin. (50%gacha) 3 yildan oshmagan muddatga. Qo'shimcha soliq imtiyozlari xorijiy investor tomonidan O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan tuzilgan O'zbekistonning investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risidagi qonuniga muvofiq tuzilgan Investitsiya shartnomasi bo'yicha berilishi mumkin.

Bundan tashqari, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etuvchi sub'yektlar va boshqalar uchun ma'lum soliq imtiyozlarini berishni nazarda tutuvchi maxsus soliq rejimi mavjud.

XULOSALAR

So'nggi yillarda tashqi savdo sohasida eksport salohiyatini kuchaytirish, bojxona ma'muriyatchiligini takomillashtirish, shuningdek, tadbirkorlik sub'yektlarini tashqi savdo faoliyatini rag'batlantirishning samarali tizimini yaratishga qaratilgan bir qator tarkibiy islohotlar amalga oshirildi. Shunday qilib, mahalliy mahsulotlar eksportini rag'batlantirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 24 maydagi qaroriga muvofiq, eksportdan oldingi kreditlar bo'yicha foizli xarajatlarni qoplash uchun eksport qiluvchi korxonalarga subsidiyalar va kompensatsiyalar beriladi.

Shuningdek, yuqorida qayd etilgan Qarorga muvofiq, hisobot davri oxirida tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotishdan tushgan umumiy daromadda tayyor mahsulot eksportining ulushi 50 foizdan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan Komissar (agent) orqali, iltimosiga binoan, ishlab chiqarishda ishlatiladigan xom ashyo, butlovchi buyumlar va materiallarni import qilish uchun bojxona deklaratsiyasi qabul qilingan kundan boshlab 120 kungacha qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashni kechiktirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda PKM-826-sonli qarori (<https://lex.uz/docs/5201216>)

Investitsiyalar vazirligi huzuridagi Eksportni ilgari surish agentligining moddiy yordam berish tartibini tasdiqladi. Tashqi savdo eksportchi tashkilotlarga mamlakatda ham, chet elda ham xalqaro standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimini joriy etish, milliy mahsulotlarni xorijiy vakolatli organlarda ro'yxatdan o'tkazish, ko'rgazma stendlarini yaratish hamda xalqaro ko'rgazma va yarmarkalarda, taqdimotlarda ishtirok etish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash uchun reklama kampaniyalari, shu jumladan an'anaviy reklama va xalqaro tanlov va tanlovlarda ishtirok etish.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha xalqaro tajribalarga tayangan holda jadallashtirilgan investitsiya siyosatini yuritgan holda mamlakatimiz investitsion jozibadorlikni oshirish hamda xorijiy investorlarni mamlakatimizdagi



faoliyatini qo'llab-quvvatlash kerak. Shuningdek, mamlakatimizda biznes yuritish uchun yaratigan shart-sharoitlar va huquqiy kafolatlar to'g'risida xorijiy investorlarni keng xabardor qilish maqsadida xalqaro anjumanlar va investitsion forumlar tashkil etishni jadallashtirish zarur. Ushbu maqsadda videoroliklar tayyorlash, maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil etish ishlarini yanada jadallashtirish, ushbu zonalarga yirik strategik investorlarni jalb qilish, O'zbekistonning xarqaro reyting va indeksdagi o'rnini mustahkamlash talab etiladi [14].

O'zbekistonning investitsion siyosati, fikrimizcha quyidagilarga yo'naltirilgan bo'lishi kerak:

- respublika qonunchiligi kamchiliklarini bartaraf etishga;
- davlatning investitsion siyosati noizchilligini tekislashga;
- ortiqcha ishchi kuchiga ega bo'lgan hududlarga investitsiyalarning ko'plab to'planishiga qulay shart-sharoit yaratadigan investitsion muhitni shakllantirishga;
- ijtimoiy masalalarni hal etishga;
- hududlardagi infratuzilmani rivojlantirishga.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya salohiyatini oshirish uchun viloyat hududlarining har biriga investitsiyalarni jalb qilish, investitsiya kiritish istagida bo'lgan tadbirkorlik subyektlari uchun istiqbolli loyiha takliflarini taqdim etish, sifatli loyihalarni ishlab chiqish va ijrosini tizimli ta'minlash, xorijiy sheriklar bilan o'zaro

manfaatli hamkorlik qilish, investorlar faoliyati uchun qulay shart-sharoit yaratib berish, investitsiyalarni jalb qilishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish kerak bo'ladi. Yildan-yilga yurtimizdagi investitsion muhitning yaxshilanayotganligi hamda aholining daromadlari oshgayotganligini yuqoridagi raqamlardan ham ko'rishimiz mumkin.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiya jarayonlarini samarali tartibga solish va ularning taqsimlanishini to'g'ri aniqlash uchun iqtisodiy asoslarni yaratish, shuningdek, ishlab chiqilgan siyosatni amalga oshirishga imkon beruvchi qulay shart-sharoitlarni ta'minlash investitsiya siyosatining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon orqali investitsiyalarni ustuvor yo'nalishlarga yo'naltirish, resurslardan oqilona foydalanish va moliyaviy, soliq hamda huquqiy mexanizmlardan samarali foydalanish mumkin bo'ladi. Shu bilan birga, to'g'ri tashkil etilgan investitsiya siyosati iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, ishlab chiqarish salohiyatini kengaytiradi va korxonalarining raqobatbardoshligini oshiradi. Iqtisodiyotning turli tarmoqlariga kiritilgan investitsiyalar orqali yangi ish o'rinlari yaratiladi, innovatsion texnologiyalar joriy etiladi va milliy ishlab chiqarish eksport salohiyati oshadi. Shu tariqa, investitsiya siyosati nafaqat moliyaviy va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, balki mamlakatning uzoq muddatli strategik rivojlanishiga xizmat qiluvchi asosiy vosita sifatida namoyon bo'ladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 1 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash choratadbirlari to'g'risida"gi PF-5495-sonli Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 29.12.2020. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
3. Abdurahmonov S.A. Investitsiyalarni boshqarish. Toshkent: Iqtisodiyot va innovatsiyalar, 2013
4. Aghion P., & Howitt P. The Economics of Growth. Cambridge, MA: MIT Press. 2009.
5. Brealey R.A., Myers S.C., & Allen F. Principles of Corporate Finance (10th ed.). New York: McGraw-Hill. 2011
6. Zengler T. The Case for Diversification of Investment Sectors. New York: Economic Press. 2004
7. Krugman P. Geography and Trade. Cambridge: MIT Press. 1991
8. Maxmudov S.B. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning noan'anaviy usullarini takomillashtirish. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy jurnali. №5, oktyabr, 2020 yil. 2 bet
9. Mirkhonov A.A. Ekologik investitsiyalar va barqaror rivojlanish. Toshkent: Iqtisodiyot. 2019
10. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge: Cambridge University Press. 1990
11. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press. 1990
12. Raxmonov B.A. Investitsiya va innovatsiyalar. Toshkent: Iqtisodiyot. 2017
13. Rosenbaum M., & Pearl J. Causality: Models, Reasoning, and Inference (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press. 2009
14. Rustamov D. Xorijiy investisiya ishtirokidagi korxonalarning boshqaruv tizimini takomillashtirish usullari. Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies Hosted online from Paris, France. 19 th January, 2023, Website: econferenceseries.com
15. Samuelson P.A., & Nordhaus W.D. Economics (19th ed.). New York: McGraw-Hill. 2010
16. Stern N. The Economics of Climate Change: The Stern Review. Cambridge: Cambridge University Press. 2007
17. Toshpulatov N.S. Innovatsion iqtisodiyot va investitsiyalar. Toshkent: Iqtisodiyot. 2015



18. Xolmatov M.Sh. Investitsiyalar va iqtisodiy diversifikatsiya. Toshkent: Iqtisodiyot. 2018
19. Эргашев А.Х. Приоритетные направления повышения роли инвестиций в реализации и модернизации комплексной программы промышленного развития страны. Тенденции развития мировой торговли в XXI веке, (2019). (pp. 424-427).
20. Schumpeter J.A. Capitalism, Socialism and Democracy. New York: Harper & Row. 1942